

TABIY VA JINSIY TANLANISHNING SHAXS PSIXIKASI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

ADPI talabasi

Abdug'ofurova Gulsanam Ihomjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy va jinsiy tanlanishning shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'siri, qanday qilib inson ongi, psixikasi hayvonlarnikidan oldinlab ketdi, inson psixikasi tabiiy va jinsiy tanlanish mahsulimi kabi masalalar nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Psixika, stabillashtiruv, evalutsiya, ehtiyojlar piramidasi, freydizm, yashash, kurash, ong va ongsizlik.

Asosiy qism: Inson ongi koinotdagi eng murakkab tizimlardan biri hisoblanadi. Uning cheksiz imkoniyatlari san'at, fan va murakkab ijtimoiy tuzilmalarini yaratishga undadi. Ammo bunday psixika qanday shakillandi va rivojlandi? Evalutsion psixologiya nuqtai nazaridan, inson miyasi shunchaki bir organdan ko'ra ko'proq, u millionlab yillar davomida uzluksiz tabiiy va jinsiy tanlanish natijasida shakillangan mexanizmlar to'plamidir. Bu maqolada Charliz Darvinning nazariyalari xususan evalutsion nazariyalari; tabiiy va jinsiy tanlanish nazariyalarining inson psixikasi va aqliy jarayonlarga tasiri tahlil qilinadi.

“Tabiiy tanlanish – yashash uchun kurashda foydali belgi, xossalarga ega organizmlarning yashab qolishi, shunday belgi xossalarga ega bo'lmaganlarining nobud bo'ladi”. Tabiiy tanlanish o'z navbatida turlarga bo'linadi. Ular quyidagilar: Harakatlantiruvchi, Stabillashtiruvchi va Dizruptivlar kiradi.

Stabillashtiruvchi moslashish – bu o'zgarmagan muhitda o'zgarmagan organizmlarning yashab qolishi tushuniladi. Bu reaksiya normasidan og'maganlari yashab qolgan. Bunga yaqqol misol: Latimeriya va Gekkon, o'simliklardan Ginko biloba kiradi. Bu tanlanish populyatsiyaning o'zgaruvchanligini kamaytiradi tur turg'unligini oshirib beradi. Buni quyidagicha tushunish mumkin, Agarda bir necha bo'gin mobaynida yashash sharoiti o'zgarmasa u holda o'sha populyatsiya – maksimal darajada moslashishga uchraydi va to'satdan paydo bo'ladigon tabiat o'zgarishiga natijasida qirilib ketadi, lekin reaksiya normasidan chiqqan ya'ni uning tuzilishi o'zgarmagan organizmlar tabiat o'zgarishiga natijasida foydali bo'lishi tufayli yashab ketishi mumkin. Reaksiya normasidan og'ishiga mutatsiya sabab bo'ladi. Mutatsiya evalutsiyaga turli xil va cheklanmagan miqdorda namuna yetkazib beradi. Tabiiy tanlanish natijasida esa o'sha muhitga mos tushganlari yashab qoladi. Tabiiy tanlanish tufayli populyatsiyalarning genafondida foydali, ya'ni mazkur muhitga organizmlarning yashab qolishini taminlaydigon genlar mustahkamlanadi.

Yana bir tabiiy tanlanish turi bu harakatlantiruvchi tanlanishdir . Bu tanlanish stabillashtiruvchi tanlanishdan tubdan farq qiladi . Harakatlantiruvchi tanlanish reaksiya normasi keng hisoblanadi . Ya'ni bu tanlanish o'zgargan muhitda o'zgarmaganlarini yashab qolishi tushuniladi .Shu sababli hozirgi organizmlar bilan uning ajdod formasi fenotip jihatdan bir necha bog'in almashishi tufayli farq qiladi lekin ma'lum miqdorda o'zaro o'xshashlik bo'ladi , bunga sabab genotipdir . Bu tanlanishning sodir bo'lishi natijasida o'sha turning keyinchalik fenotip va genotip jihatdan yangi turlarning paydo bo'lishi va organik olamdagi evalutsiya jarayonlarining asosiy sabablaridan biridir .

Dizruptiv tanlanish – buzuvchi yoki inqilobiy tanlanish kabi lug'aviy ma'nolarga ega . Qisqacha qilib aytganda ma'lum bir joyda tarqalgan bir turga mansub organizmlar orasida bir biridan farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq organizmlar guruhining uchrashi – Dizruptiv tanlanish deyiladi .

Tabiiy tanlanishni inson evalutsiyasiga ta'siri quyidagicha yoritib berish mumkin . Ma'lumki dastlabki insonlar ibtidoiy bo'lganligi to'g'risida bir qancha gipotezalar yo'q emas . Qadimgi insonlar ya'ni dastlabki odam Homo habilis tipiga mansub Avstralapiteklar deb tan olingan . Ularning tana tuzilishiga e'tibor beradigon bo'lsak tahminlarga qaraganda shunday tuzilgan :Chanoq suyagi qismi keng va kosasimon shaklda bo'lib , tananing yuqori qismini tik tutishga yordam bergan va Avstaralapiteklar ikki oyoqda yurishga o'tishgan . Bunday yurishga sabablar ham bir qancha . Masalan : Ochiq maydonda yashaydigonlari dushmanlari kelayotkanini va oziq yoki o'lja qayerda ekanligini ko'rish va anglash uchun tik qomatga , ikki oyoqlab yurishga ehtiyoj tug'ilgan . Oldingi oyoqlarning yurishdan ozod qilinishi bilan turli xil ov qurollari va shunga o'xshash bir qancha ishlarni bajarish uchun imkoniyatlar ochib berdi va natijada evalutsiya jadallasha bordi . Avstralapiteklerden esa Arxantropalar kelib chiqidi . Arxantropalar homo erectus tipiga mansub bo'lib , bir qancha rivojlanishga uchradi . Ular toshdan , suyakdan ov qurollari yasay olishgan , olovdan foydalanishdi bilishgan va e'tiborga molik tomoni shuki ular jamoa bo'lib yashashgan . Jamoa bo'lib yashashga dushmanlaridan himoyalaniish osonligi va ov qilib yegulik topish osonligi sabab bo'ldi . Jamoa bo'lib yashashganligi tufayli ularda o'sha davrga mos muloqotni paydo bo'lishiga turtki bo'ldi . Natijada ular uzuq yuluq tovush, ishora va so'zlar bilan o'zaro ma'lumot almashishgan . Taxminan 1.9 millin yil oldin bir so'z yoki tovush butun boshli gap ma'nosini bergan . Yoshlar va qariyalarining parvarishlanishi natijasida o'ziga hos ijtimoiy muhit va qisman psixika rivojlangan. Ularda individ maqomidan inson maqomiga o'tish bosqichi boshlangan edi . Ular qo'rquv , g'azab va quvonch kabi tuyg'ularni his qilishgan , amaliy xotira yaxshi rivojlangan . Keyinchalik Neandertall ya'ni paleantrop odamlarda ajdod turlarga nisbatan ijtimoiy muhit bir qancha murakkablashgan . Ularda marhumlarga nisbatan hurmat hissi paydo bo'ldi shu sababli marhumlarni shunchaki tashlab ketmasdan

maxsus chuqurliklarga ko'mganlar va turli xil tosh, hayvon shoxlaridan qabirlardi bezatishgan . Ulardan esa hozirgi zamonaviy odam Neantrop ya'ni Kromanyonlar kelib chiqqan . Ularda dastabki diniy qarash ya'ni ruh , jon borligiga ishonish va tabiatga sig'inish darajasida ongi rivojlangan . Shundan keyin haqiqiy insonlar shakllana boshladi . Har bir inson psixikasi, dunyo qarashi o'sha davrga moslikda rivojlanib, hozirga qadar shakllanib hozirgi zamonaviy shaklga yetib keldi.

Tabiiy tanlanish ,shubxasiz, insonni ikki oyoqlab yurishga, miya hajmi kattalashishiga , yirtqichlardan qochish va yashab qolish uchun moslashishlar yaratdi . Lekin bu tabiiy tanlanish inson psixikasi , xulqi va tashqi ko'rinishidagi tuzilishlarni to'liq tushuntirib bermaydi .

Odatda barcha insonlar go'zalikka ,san'atga va nafislikka qiziqishadi, ammo nega? Insoniyat uchun yashab qolishga bo'lgan hohishdi o'zi yetarli emasmi? Nega tabiatda chiroyli lekin keraksiz ba'zi holatlarda zararli hisoblangan belgili organizmlar ham uchraydi ? Nafaqat insoniyat balki hayvonlar uchun ham yashab qolishdan ham muhimroq narsa bor bo'lsa ? Agar bor bo'lsa u nima? Bu savollarga quyidagilar javob bo'lishi mumkin :

Hayotning maqsadi faqat omon qolishdan iborat emasligini tushuntirish uchun amerikalik ruhshunos Abraham Maslou o'zining “ Ehtiyojlar piramida ”yaratgan . Unda inson ehtiyojlarini piramida shaklida 5 ta qismga bo'lgan .Maslou nazariyasiga ko'ra , inson avvalambor fiziologik ehtiyojlarini(ovqat ,boshpana -omon qolish) qondirishga intiladi .Ammo bu ehtiyojlar qondirilgach avtomatik ravishda qo'shimcha ehtiyojlar paydo bo'ladi . Agar omon qolishning o'zi yetarli bo'lganda, biz hurmat , sevgi kabi hissiy ehtiyojlarga intilmas edik . Omon qolishdan ham muhimroq narsa bu- o'z hayotiga go'zallik orqali hayotiga ma'no berishdir . Maslau fikricha “ Go'zallik faqat keraksiz emas , balki ma'noli inson hayoti uchun zaruriy yakuniy elementdir ” . Bundan ko'rinadiki insonlar uchun shunchaki yashash emas balki mazmunli ,va foydali yashashga harakat qilishadi , hayvonlarchi? Hayvonot dunyosi bu savollardi qanday izohlaydi ?

Hayvonot dunyosida chiroyli belgida ega lekin foydasiz belgili organizmlar ko'p. Masalan : Dengiz tubidagi marjon riflari yoki Biolyuminessent(o'zidan nur chiqaruvchi) organizmlar . Ularning go'zalligi yashash uchun zarur emas lekin ular bir ekotizimning bir qismidir va ularning chiroyi tabiatga o'zgacha chiroy va nafislik qo'shib turadiki , Insoniyat hech qachon o'z qo'li bilan yarata olmaydigon takrorlanmas manzaralar paydo bo'ladi . Evalutsion biologiya nuqtai nazaridan , go'zallik yoki murakkablik tabiiy tanlanishga emas , balki ko'payishning muvaffaiyatiga xizmat qiladi . Foydasiz bo'lib ko'ringan bunday belgi , xususiyatlar ko'payish marosimida qo'l keladi, ahir hayvonot dunyosi hamisha o'zidan nasl qoldirishga intilib kelgan . Jinsiy tanlanish tabiiy tanlanishdan farqli o'laroq tirik qolish uchun emas , qarshi jins vakilini o'ziga jalb qilishga qaratilgan xususiyatlarni

rivojlantiradi . Aytaylik qushlarda o'z juftini jalb qilish uchun rang barang patlar, o'zgacha ovozlari va turli xil raqslar uyushtirishadi . E'tibor tortilgani va tanlangani o'zidan nasl qoldira oladi .

Freyd fikricha “ Inson psixikasi ham shu jinsiy tanlanish natijasida rivojlangan . Insonni o'z hohish istaklari boshqaradi ” deb hisoblaydi . Freyd inson topografik madelini 3ga bo'ladi: Ong , Ongosti va Ongsizlik . “Ongsizlik eng katta qism . Bu yerda barcha siquvga uchragan istaklar , qo'rquvlar , jinsiy va tajovuskor mayllar shakllanadi ” deb ta'rif bergan .

Ushbu maqola inson psixikasini biologik evolutsiya , xususan, Darvinning tabiiy va jinsiy tanlanish nazariyalari bilan bog'liqligini tushuntirishga harakat qiladi . Maslouning ehtiyojlari kabi psixologik tuzilmalar , bularning barchasi evalutsion omon qolish va nasl qoldirish strategiyasi natijasi sifatida ko'rib chiqildi . Tahlillar shuni ko'rsatdiki , inson psixikasi million yillar davomida uzluksiz tabiiy va jinsiy tanlanish natijasida shakllangan murakkab mexanizmlar to'plamidir . Tabiiy tanlanish insonni ikki oyoqlab yurishga , miya hajmining kattalashishiga va yashash uchun kurashda moslashishga zamin yaratgan bo'lsa , jinsiy tanlanish va ijtimoiy ehtiyojlar uning madaniy hamda ma'naviy qiyofasini belgilab bergan .

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Biologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi darslik. 1-nashr. Mualliflar: A.G'ofurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyev , I.Abduraxmonova. T.: “ Sharq ” , 2017-yil.
2. Charliz Darvin. Turlarning kelib chiqishi /Tabiiy tanlanish / London: John Murray nashriyoti 1872-yil , 6-nashr .4-bob , 69-72 sahifalar
3. Zigmund Freyd. Psixoanalizga kirish/ “ Yangi asr avlodi ” nashriyoti 2021-yil . 20,21,26-ma'ruzalar.
4. Sohobova,O. (2024).Ta'lim jarayonida tarbiyaning pedagogik -psixologik xususiyatlari. Universal xalqaro ilmiy jurnal ,1(4), 731-732.
5. Tolibjonova,O.V. (2025). Oila psixologiyasi :xususiyatlari,rivojlanishi va oila a'zolar o'rtasidagi munosabatlar. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 18(1),392-397
6. Tolibjonova,O.V.(2025). Yoshlik davri psixologiyasi .Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 18(1), 388-391